

## QOBILIYATLARNING PAYDO BO'LISHI VA YUZAGA CHIQISHINI PSIXOLOGIK O'RGANISH

Bozorova Ro'zgul

TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

+998 99 704 96 15.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11178414>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bolalikda qobiliyatlarning qay tartibda paydo bo'lishi va ularning qanday jarayonlarda yuzaga chiqishi to'g'risida fikr yuritiladi. Shaxs psixologiyasida qobiliyat muammosining dolzarbligi, shuningdek, ularning yuzaga chiqishidagi turli to'siqlar o'r ganiladi. Qobiliyatni to'g'ri yo'naltirish va uni rivojlantirish haqida ham mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj, motivatsiya, tafakkur, regetlik, stress, depressiya, idea, geperkeneziya, evolutsiya, illuziya, striotip, ong, iroda, idrok, nutq, temperament, xarakter.

## PSYCHOLOGICAL STUDY OF THE EMERGENCE AND EXPRESSION OF ABILITIES

**Abstract.** This article discusses the order in which abilities appear in childhood and in what processes they appear. The relevance of the problem of ability in personality psychology, as well as various obstacles to their emergence are studied. It also talks about the right direction of the ability and its development.

**Key words:** Ability, interest, need, motivation, thinking, reticence, stress, depression, idea, hyperkenesis, evolution, illusion, stereotype, consciousness, will, perception, speech, temperament, character.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ВЫРАЖЕНИЯ СПОСОБНОСТЕЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается порядок появления способностей в детстве и в каких процессах они возникают. В психологии личности изучается актуальность проблемы способностей, а также различных препятствий на пути их возникновения. Речь идет также о правильном направлении способности и ее развитии.

**Ключевые слова:** Способность, интерес, потребность, мотивация, мышление, скрытность, стресс, депрессия, идея, гиперкенез, эволюция, иллюзия, стереотип, сознание, воля, восприятие, речь, темперамент, характер.

Qobiliyat, avvalo, insonning shaxsiy, o'ziga tegishli bo'lgan xususiyati hisoblanadi. Shu bilan birga, uning individual holatlarini yuzaga chiqaruvchi asosiy omilidir. Qobiliyatning har bir kasbiy yo'nalishda turlicha ko'rinishlari mavjud. Buni inson anglay olishi ba'zida atrofdagilarga yaqqol sezilishi mumkin. Shuni e'tiborga olish kerakki, mavjud qobiliyatlarning turlari individualligiga qarab turlicha bo'ladi. Chunki, insonlar individual ekan, ularning qobiliatlari va ularni amalga oshirish holatlari ham, albatta, turlichadir. Qobiliyatlarning asosan, bir nechta turi mavjud bo'lib, ijodiy, aqliy va reproduktiv kabi qobiliyatlardir. Ular bir-biridan keskin farqlanadi.

Bu qobiliyatning ijodiy turi haqida ma'lumki, inson biror san'at turiga o'zini moyilligini nmoyon etadi. Ushbu Ijodiy qobiliyatkorlik bilan bir qatorda aqliy qobiliyat ham muhimdir, chunki aqliy qobiliyat insonlargagina xos va ulardagi bunday qobiliyat ularning biror-bir narsani, g'oyani o'yab topishi yoki biror-bir muhim narsani yaratishi bilan bog'liqdir. Bu o'z navbatida ijodkorlik qobiliyati bilan ham chambarchas bog`liqligini ko'rishimiz mumkin.

Har ikkala qobiliyatning amalga oshishi bu insondagi ma'lum bir ideyalarni paydo qilsa ajab emas. Ijodkorlik qobiliyatining muammolariga sharoitlarning yetishmasligini misol qilsa bo'ladi. Buni insondagi har bir mavjud qiziqishning susayishida ko'rish va yechimlar natijasini shakllantirishni o'z ichiga olishi mumkin. Ammo, qiziqish yoki moyillik aynan qobiliyat bo'lib qolmaydi. Ular faqat qobiliyatning yuzaga chiqishini taminlab beruvchi omil hisoblanadi.

Insondagi ijodkorlik qobiliyatini bilish maqsadida ko'plab tavsiya va tahlillar o'ylab topilgan. Ana shu tahrir tabiiylikdan boshlanib insonning bilim yaratish qobiliyatini emperik va eksperimental baholashni yuzaga keltiradi-ki, bu insonni qay tarzda rivojlantirish mumkin yoki uning qobiliatlari qay darajada ekanligini aniqlab bera olishi mumkin. Insonning bilim yaratish qobiliyatini ko'pincha turlicha izohlashadi, biroq insondagi bilim olish bilan ijodkorlik o'rtasidagi tafovut aynan ikki narsani anglatib qolmay, ulardagi ma'lum bir chegarani ham belgilab beradi.

Ijodiy fikrlashni ko'pincha psixologik vositalar yordamida o'rganish mumkin, og'zaki ijodkorlik yoki obrazli ijodkorlik, shaxsiy ijodkorlik kabi, ba'zida insonlar og'zaki yoki nutqi yaxshi rivojlanmagan bo'lishi mumkin, yoki obrazli tarzda ma'lum bir qobiliyatga ega bo'lmasligi mumkin. Ammo, shaxsiy hayotida ular bemalol ijodkorona ish olib bora oladi. Masalan, oiladagi erkin muhitda u shunday bir ijodkorona inson bo'lishi mumkinki, bu qobiliyat aynan oiladagina namoyon bo'lib, boshqa joylarda o'z tusini yo'qotishi mumkin. Qobiliyat insonning individual xususiyati hisoblanar ekan, qobiliyatda inson ko'pincha bilimlar bilan emas, balki kelib chiqishi nuqtai nazaridan fikr bildiradi. Shunday holatlar ham borki, mohirlik tushunchasi qobiliyat bilan aynan bitta narsa ekanligini ta'kidlab o'tishadi, biroq bu ikkalasi ko'pincha o'zga - o'zga tushunchalar hisoblanadi. Ba'zida shunday qarashlar ham borki, qobiliyatni allohning bir ino'mi sifatida qaralsa ajab emas. Ko'nikma, bilim, malakani ham ba'zida qobiliyat deb hisoblashadi,

ammo bilim bilan malaka ko'nikma va qobiliyat o'rtasida juda katta farqlar mavjud. Chunki, qobiliyat insondagi tug'ma xarakterga ega bo'lgan biror-bir narsani yoki voqelikni mohirona egallay olish yoki faoliyat doirasida olib borish hisoblanadi. Qobiliyatni o'rganuvchi olimlar ko'plab tadqiqotlar olib boradi va qobiliyat shunday Allohning ino'mi-ki, uni aynan paydo qilib ham yoki yo'qotib ham bo'lmaydi deb fikr bildirishadi. Ba'zida inson qobiliyatlari sharoit natijasida yo'qolganday bo'lishi mumkin, Biroq, qulay sharoit tug'ilishi bilan u qobiliyat yana o'z-o'zini tiklash xususiyatiga ega hisoblanadi. Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tushuncha bu kuzatuvchanlik, ya'ni bunga insonning o'sha biror narsani fahmlash, unga diqqatini qaratishi va kuchli iroda talab etiladi. Inson rivojlanishi har bir jarayonda qobiliyat asosida yotadi, chunki inson biror bir voqelikni amalga oshirar ekan, unga nisbatan ma'lum bir qobiliyati mavjud bo'ladi. Ana shu qibiliyatlardan biri bora-bora yuzaga chiqadi va buni ko'plab ko'rib chiqish mumkin.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, qobiliyatni aynan iste'dod ham atashadi, ammo iste'dod ham qobiliyatga qaraganda ma'lum bir chegaralangan ko'rinishga ega. Har bir holatda inson qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha, biror-bir faoliyatga moyillikni yoki biror-bir ishni mohirona qilishda uning qobiliyati bor deb aytib qolishadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu uzluksiz davom etsagina qobiliyat hisoblanadi. Ba'zida esa, bu vaqtincha bo'lib qandaydir qiziqish tufayligina amalga oshadi. Qobiliyat aslida tug'ma bo'lar ekan, uning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan aloqaga ham bog'liq, chunki qobiliyat aynan ijtimoiy muhitdagina rivojlandi va ijtimoiy muhitdagina o'zini tiklaydi. Mavjud ijtimoiy muhitning ahamiyati qobiliyatning yuzaga chiqishida asosiy rol o'ynaydi. Chunki, yuqorida aytganimizdek, noto'g'ri sharoit qobiliyatning yo'qolishiga olib keladi. Bilish bilan bir vaqtda ayni yo'qolgan qobiliyatning yuzaga chiqishini ijtimoiy muhit yana qaytadan tiklab beradi. Bunga misol qilib she'r yozishga sharoiti yo'q, she'r yozishga imkon bo'lмаган shoirlar ma'lum bir vaqt o'tib unga imkoniyat hamda unga vaqt berilsa ular shu ondan ilhomlanib ham she'r yozishadi. Ko'pincha, insonning hayotida turli voqeа, hodisalar yuz berib, ular ma'lum bir insonni tajriba orttirishga olib keladi, biroq ushbu holatda tajribalardagi qibiliyatlar ham rivojlanib oldingi tug'ma qobiliyatni yanada takomillashtirishi ham mumkin.

Xarakter bilan qobiliyat hamohang tarzda bo'ladi, chunki inson biror bir yumushni aynan xarakteridan kelib chiqib amalga oshiradi va o'sha amalga oshirayotgan faoliyatida ma'lum bir qobiliyatning uchqunlari mavjud bo'ladi. Insonlarda masalan, musavvir, shoir, musiqachi aynan san'at yo'nalishidagi qobiliyatga oid ko'plab ma'lumotlar, masalan, buni ijodkorlik qobiliyatları desak ham bo'ladi. Insonning ijodiy qarorlar qabul qilishi, ijodkorlikni tushunishi uning tubdan o'zgartirishgacha bo'lgan holatlari aynan san'at qobiliyatları bilan bog'liq. Ba'zida uchrab turadigan kundalik hayotdagi ijodkorlik, zukkolik maqsadga erishish uchun atrofdagi har bir holatdan yoki voqeadan g'ayri oddiy tarzda foydalanim qiyin tuyulgan narsalarni ham oson amalga

oshirish, bu albatta rivojlangan qobiliyat bilan bog'liq. Qobiliyat ko'plab uchrashi mumkin. Biroq, nostonart yechimlar qobiliyatni anglatishini bilib bo'lmaydi. Mashhur olimlardan Gans Sele sening shunday deb fikr bildiradi: Qobiliyatlar, asosan, ikki turga ajraladi. Biirinchisi bu ijodiy yuqorida aytib o'tilgan qobiliyat hisoblansa, ikkinchisi esa, reproduktiv qobiliyat hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat haqida ma'lum bir taassurotlarga ega bo'ldik, endi esa reproduktiv qobiliyat haqida ham bir muncha gaplashamiz. Reproduktiv qobiliyat insonning turlicha ko'nikmalari yoki biror bir narsani muvaffaqiyatli amalga oshirishi, ma'lum bir bilimlarni puxta egallashi va uni amaliyotda qo'llashi bilan ajralib turadi. Qobiliyat haqida ma'lum bir model va asos mavjud. Bu esa, insondagi ko'plab tajriba va bilimlarga tayanadi. Rivojlantirish darajalari ham mavjud, uning rivojlantirish darajalari sifatning quyidagi darajalaridan ajralib turadi.

Qobiliyatilik, daholik, shaxsning iqtidori kabilar. Qobiliyatni yuzaga chiqarish uchun insonda maxsus tajribalar ham mavjudki, ularning dinamik qobiliyat va undagi asos bilan birga rivojlanishi zarurdir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, iqtidor va qobiliyat bir-biriga yaqin tushuncha bo'lganligi bilan birga bir-biridan hajmi jihatdan farq qiladi. Qobiliyat iqtidorga nisbatan yuqori turuvchi va keng holatni yuzaga chiqaruvchi xususiyat hisoblanadi. Qobiliyat haqida turli tadqiqotlar ham olib borilganki, unda insonning ma'lum bir qobiliyati borligi aniqlangan, biroq yuzaga chiqmaydigan qobiliyatlar ham mavjud. U qobiliyatlar qachondir yuzaga chiqadiki, ammo ushbu vaqt juda katta vaqt ni talab qilish ham mumkin. U sekinlik bilan yuzaga chiqib borishi ham mumkin, ba'zida qobiliyatlar yaqqol ko'zga tashlansa ba'zilari esa juda sekinlik bilan namoyon bo'ladi. O'sha sekinlik bilan namoyon bo'layotgan qobiliyat juda ulkan marralarni, yutuqlarni olib kelishi mumkin.

## REFERENCES

1. G.X.Sharafuddinova – Umumiyo psixologiya, Toshkent 2022
2. F.Abdurahmonov, Z.Abdurahmonova – Din psixologiyasi Toshkent 2011
3. The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religiopus Beliefs in a child. Sh.Xudoyqulova, M.Saydaliyueva – Eurasian Scientific Herald 2003
4. O.Bo'riyev – O'zbek oilasining tarixi, Toshkent 2002
5. Abdurauf Fitrat – Oila, Toshkent 2002
6. Qurbonov Sh, Saidxalilov E - Ta'lrim tizimini boshqarish – 2016
7. Ganiyeva, M. (2023). INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA, O'QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING, SHAKL, METOD VA VOSITALARI. Scienceweb academic papers collection.

8. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. TA'LIM FIDOYILARI.
9. Ganiyeva, M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlanirishda TRIZ ning imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.
10. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.